



CORRUPTION IS AN OBSTACLE TO DEVELOPMENT

A.A. Tajiyev

Specialized Training Center of the National Guard of the Republic
of Uzbekistan

Weapons and Shooting Instructor Armed Forces Officer

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084283>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2025

Accepted: 08th September 2025

Online: 09th September 2025

KEYWORDS

*Reform, corruption, power,
state, organ, salary, vice, nation,
system, media.*

ABSTRACT

This article analyzes the causes and measures to combat the phenomenon that is commonly called bribery, and in a broad sense - corruption, which undermines the foundations of all reforms.

КОРРУПЦИЯ ЯВЛЯЕТСЯ ПРЕПЯТСТВИЕМ РАЗВИТИЮ

А.А. Таджиев

Специализированный учебный центр Национальной гвардии Республики
Узбекистан

Инструктор по стрельбе и стрельбе, офицер Вооружённых Сил

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084283>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2025

Accepted: 08th September 2025

Online: 09th September 2025

KEYWORDS

*Реформа, коррупция, власть,
государство, орган,
зарплата, порок, нация,
система, СМИ.*

ABSTRACT

В данной статье анализируются причины и меры противодействия явлению, которое в просторечии называется взяточничеством, а в широком смысле — коррупцией, подрывающему основы всех реформ.

KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI

A.A.Tajiyev

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi

Qurol-aslaha va o'q otish sikli o'qituvchisi Qurolli Kuchlar xizmatchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084283>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2025

Accepted: 08th September 2025

Online: 09th September 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

Mazkur maqolada xalq tilida soddagina qilib – poraxo'rlik, keng ma'noda korrupsiya, deb ataluvchi hodisa barcha islohotlar ildiziga bolta urarkan,



Islohot, korrupsiya, hokimiyat, davlat, organ, maosh, illat, millat, tizim, ommaviy axborot vositalari.

ushbu maqolada uni keltirib chiqaruvchi sabab va qarshi kurash choralari tahlil etilgan.

Kirish (Introduction). «Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo’sinda, g’ayriqonuniy shaxsiy naf ko’rish maqsadida, o’z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir». Aslida korrupsiya biror mansabdor shaxsning qonunchilik va axloqqa zid ravishda o’zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishidir. Atama, eng avvalo, siyosiy apparat xodimlariga nisbatan foydalanishi odatiy tusga kirgan.

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o’tiladi. Korrupsiya bizning kunlarga yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo’qotib bo’lmaydi. Hatto rivojlangan arab davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo’lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Qur’oni karimda poraxo’rlik bevosita taqiqlanadi: “Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo’l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang” [Baqara surasi, 188].

Tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak, insoniyat shakllanish jarayonining ilk davri bo’lmish ibtidoiy jamiyatlarda ham korrupsiyaning ayrim ko’rinishlari bo’lib, o’sha davrda qabila oqsoqoliga yoki harbiy boshliqlarga muayyan bir imtiyozni egallash uchun haq to’lash tabiiy hol hisoblangan. Keyinchalik esa davlat boshqaruvining takomillashuvi va murakkablashuviga ko’ra, korrupsiyaning ham turli xil shakllari yuzaga kelib, oxir-oqibatda u global muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Bilamizki, shaxs, jamiyat hamda davlat tushunchalari o’zaro chambarchas bog’liq. Shu sababli jamiyatning biron a’zosiga ta’sir qilgan biror illat, albatta, butun jamiyatga o’z ta’sirini o’tkazmay qolmaydi. Korrupsiya paydo bo’lishi va rivoji mazkur mamlakatning taraqqiyotiga zimdan to’sqinlik qiladi hamda davlatning olib borayotgan islohotlariga qarshilik ko’rsatadi. Korrupsiya illatiga qul bo’lgan amaldorlar davlatning, jamiyatning, xalqning bildirgan ishonchini suiste’mol qilib, o’z manfaatlarini xalq va davlat manfaatlaridan ustun qo’yadilar. Bu esa davlar siyosatining o’sha amaldorlar boshqarayotgan bo’g’inida ish sifatining buzilishiga olib keladi. Natijada butun bir jamiyat zarar ko’radi. Korrupsiya davlatni nafaqat moddiy, balki ma’naviy-ahloqiy jihatdan ham yemirib, xalq va davlat o’rtasida ishonchsizlik deya atalmish ulkan chegaraning vujudga kelishiga olib keladi. Bu esa xalq o’rtasida Vatanga daxldorlik va kelajakka ishonch tuyg’ularining so’nishiga olib keladi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Yuqoridagi fikrimizning isboti o’laroq qaysi bir manba borki aynan shu illatni qoramagan bu illat azaldan insoniyat rivoji uchun doimiy to’siq bo’lib kelmoqda. Tarixga nazar soladigan bo’lsak ham



bu holat Usmoniylar saltanatida ham istisno emasdi hattoki harbiy sohada ham yuksalishlarga yo'l bermagan.

Usmoniylar saltanatida poraxo'rlik oqibati shu bo'ldiki, qo'shinlar harbiy tayyorgarligini yo'qotdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag'lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi.

Xullas, qadim zamonlardayoq ushbu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham ko'ngildagidek natija bermagan.

Aytish joizki, korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo'rlik, tamagirlik kabi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga minb'ad chek qo'yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi zarur. Korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushungan, uni ongli ravishda idrok etgan odam bu jinoyatga qo'l urmaydi [1].

Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lini o'zi tanlaydi, aniqrog'i, qanday yo'l to'g'ri ekanini hayot ko'rsatadi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashni keng qamrovda olib borish choralari ko'zda tutilgani, bu borada har bir masalaga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan qutqarish sharafli burchimiz ekanligini hamma birdek tushunmog'i shart. Aks holda, o'ziga tegishli xulosa chiqarmay, poraxo'rlik va tamagirlikdan tiyila olmayotgan shaxslar jazoga tortilishi muqarrar!

Xo'sh, ushbu salbiy illatdan halos bo'lish uchun nima qilish lozim, qanday choralar ko'rilsa, bu illatning tomir otib yashnab ketishiga to'sqinlik qilgan bo'lamiz? Tabiiyki, korrupsiya ortida mo'may daromad topish ilinji turibdi, biroq har bir quyi bosqichda uning hakalak otishiga davlat xizmatchilarining oylik maoshi pastligi sabab bo'lmoqda.

Masalan, mahalliy hokimiyatning oddiy xizmatchisini ko'z oldingizga keltiring, uning kichik maoshi, aslida xodim inson kapitaliga mos emasligi, korrupsiyaga qo'l urishga majbur qiladi. Boshqacha qilib aytganda, kuchli bilim va tajribaga ega xodim hech qachon kichik maosh taklif etilgan ish lavozimida mehnat qilmaydi. Uning oldida tanlash uchun ikkita yo'l turibdi: ish joyini o'zgartirib, ko'p oylik maosh va'da qilib turgan xususiy sektorga o'tib ketish yoki kichik maoshga «qanoat» qilib, korrupsiyaga qo'l urish. Bunday vaziyatda, davlat organlarida kadrlar yetishmovchiligi kuzatilib, tajribali va bilimli mutaxassislarni yo'qotishi ham hech gap emas.

Bunday turdagi illatga qarshi kurashish uchun avvalambor insonlarni ongini yuksaltirish, ularni huquqiy savodxonligini oshirish zarur. Korrupsiya natijasida xalq va davlatning rivojlanishi ortda qolayotganligini va kelajakda yoshlar bizdan yomon o'rnak olishini tushuntirish lozim.

Davlat organlarida oylik maoshni oshirish bilan korrupsiyaga barham berish mumkinmi? Nisbatan. Hozirgi kunga kelib bu illat faqatgina oylik maosh bilan bog'liq bo'libgina qolmay balki, insonlarning qalbiga singdirilmog'i lozim. Xalqimizda bir gap bor "o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'yimas" demakki, avvalo, insonlarni huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo'rlik, tamagirlik, huquqbuzarliklar va ularga chek qo'yish lozimligi,



bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligi haqida har bir shaxsning ongiga doimiy singdirilib borilishi lozim.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Biz bu borada Jahon tajribasiga yani korrupsiyaga keskin cheklovlar qoya olgan mamlakatlar va davlatlar tajribasiga suyanmog'imiz zarur va hozirgi aytmoqchi bo'lgan jahon mamlakatlari usullaridan ham samarali foydalanishimiz kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi.

Korrupsiya ildiziga bolta urishda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar ustuvor mavqeni egallashi lozim, degan fikrdaman.

Lekin afsuski, MDH davlatlarida kimningdir tazyiqi, ko'rsatmasi yoki tamagirligi, mansabdorning sotib olinishi evaziga sudlarning adolatsiz hukmlar chiqarishi hollari ko'p uchraydi (yurtimiz ham mustasno emas). Sud tizimi siyosiy hokimiyatning itoatgo'y, tobe organiga aylanishi kasallikning battar gazak olishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa shundaki, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar ana shu hodisa yashab turgan jamiyat yaratgan tizimning nosog'lom yashashida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi asosiy vazifasi ijtimoiy kayfiyatni yoritish: cho'qqining o'tkir nuqtasiga yetib kelganimizni eslatib turishdan iborat.

References:

1. Ш.Мирзиёев “Корубция билан ҳеч қачон мққсадимизга эриша олмаймиз” -Т. 8 декабрь 2018 й.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T: - «O'zbekiston»- 2017 46- bet
3. Otamurodov S, Xusanov S., Raxmatov J. Ma'naviyat asoslari. -T., 2002
4. Axmedova M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va burchlari. //Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. -Andijon, 2015
5. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir” nomli ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2019-yil 9-dekabr.
6. Raxmonqulov X. Yuridik fanlarni rivojlantirish istiqbollari //Yuridik fanlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari //Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -T.: TDYuI, 2006.
7. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017, 6-son, 70-modda.